

## XIZMAT KO'RSATISH SOHASI TASNIFI VA RIVOJLANTIRISHI

**Nurmamatov Oxunjon Abdinabi o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi  
magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanadirish bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'r ganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi*

**Kalit so'zlar:** *xizmat ko'rsatish, servis, turizm, xizmatlar sohasi, mehmonxona xizmati, savdo, shahobcha, sayyohlar.*

### CLASSIFICATION AND DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR

**Abstract.** *This article examines the theoretical and practical foundations of the development of the service sector, and based on them, conclusions and scientific and practical proposals are formulated.*

**Keywords:** *service, service, tourism, service sector, hotel service, trade, restaurant, tourists.*

Dunyoda xizmatning minglab turlari mavjud bo'lib, ularni batafsil o'r ganish uchun ma'lum darajada tartibga solish va tasniflash taqozo etiladi. Jumladan, Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) xizmatlarning 160 turini tan oladi va ularni 12 guruhga bo'ladi:

1. Ishchanlik xizmatlari 46 turda
2. Aloqa xizmatlari 25 turda
3. Injiniring va qurilish xizmatlari 5 turda
4. Distribyutorlik xizmatlari 5 turda
5. Umumta'lim xizmatlari 5 turda
6. Atrof-muhitni muhofaza qilish xizmatlari 4 turda
7. Moliyaviy xizmatlar (shu jumladan, sug'urta xizmatlari) 17 turda
8. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar 4 turda
9. Turizm va sayyohlik xizmatlari 4 turda

- 
10. Dam olish, madaniy va sport bilan bog'liq xizmatlar 5 turda
  11. Transport xizmatlari 33 turda
  12. Boshqa xizmatlar (masalan, maishiy) 7 turda.

Ammo BMTning ushbu tasnifini barcha xalqaro tashkilotlar o'zlariga qabul qilgan emaslar. Xizmatlarni tasniflash borasida qator xalqaro tashkilotlar o'z qarashlariga ega bo'lib, ulardan biri Xalqaro valyuta fondi (XVF)ning fikricha, barcha xizmatlar ikkiga bo'linadi: savdo qilinadigan va savdo qilinmaydigan xizmatlar. Bunday tasnif xizmatlarning xalqaro savdoda qo'llanilishi nuqtai nazaridan keltirilgan. Savdo qilinadigan xizmatlarga ushbu jarayonni amalga oshirish mumkin bo'lgan xizmat turlari kiritilgan. Savdo qilinmaydigan xizmatlar esa faqat milliy davlatlarning o'zlarida amalga oshiriladi, ya'ni ular shu davlat ichida yaratiladi, sotiladi va iste'mol qilinadi. Bunga misol sifatida kommunal xizmatlar bilan bog'liq xizmatlarni kiritish mumkin.

XVFning ta'kidlashicha, sotiladigan savdo xizmatlariga quyidagilar kiradi: transport xizmatlari; borib kelish (xizmat safari, turizm, sayohat kabi) xizmatlari; aloqa xizmatlari; qurilish xizmatlari; sug'urta xizmatlari; moliyaviy xizmatlar; kompyuter va axborot xizmatlari; turli litsenziya to'lovchilari; turli biznes xizmatlari; shaxsiy va madaniy xizmatlar; hukumat xizmatlari.

Mazkur tashkilot tasnifida xizmat turlarining har biri yana bir qancha boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi, masalan, transport xizmatlari ikkita katta guruhga bo'linadi: yo'lovchi tashish va yuk tashish transporti xizmatlari, ular ham o'z navbatida yana bir qancha guruhlarga bo'linadi.

Mamlakatimizda 2006 yildan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining "Faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning statistik tasnifi" asosida xalqaro talablarga to'la uyg'unlashgan "O'zDT 010:2006. O'zbekiston Respublikasi faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tasniflagichi" joriy etildi. Ushbu tasniflagichga ko'ra respublikamiz iqtisodiyotida qo'llaniladigan mavjud xizmat ko'rsatish turlari va ularning sonini 1-jadval ko'rinishiga keltirdik.

Shunday qilib, xizmatlar, ularning turlari va ular bilan bog'liq muammolar xususida hali olimlar ham, xalqaro tashkilotlar ham aniq bir to'xtamga kelishgan emas.

Bizning fikrimizcha, xizmatga berilgan ta'rifimizga asoslanib, ularni quyidagi guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiq:

- inson kamoloti bilan bog‘liq xizmatlar;
- oila ravnaqi bilan bog‘liq xizmatlar;
- mehnat jamoalari takomillashuvi bilan bog‘liq xizmatlar;
- hudud taraqqiyoti bilan bog‘liq xizmatlar;
- davlat ravnaqi bilan bog‘liq xizmatlar;
- jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq xizmatlar.

**1- jadval O'zbekiston Respublikasidagi xizmat ko'rsatish turlari va ularning soni**

<b>J</b>	<b>Xizmatlar nomlari</b>	<b>Xizmatlar soni</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>
<b>1</b>	<b>Qishloq xo'jaligi, ovchilik xizmatlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➢ <i>bog‘dorchilik sohasidagi xizmatlar</i> (48);</li> <li>➢ <i>chorvachilik sohasidagi xizmatlar</i> (22);</li> <li>➢ <i>ovchilik, yovvoyi qushlarni ko‘paytirish sohasi xizmatlari</i> (1).</li> </ul>	<b>71</b>
<b>2</b>	<b>O'rmon xo'jaligi, yog‘och tayyorlash sohasidagi xizmatlar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➢ <i>ishlov berilmagan o'rmon xo'jaligi mahsulotlari xizmati</i> (9);</li> <li>➢ <i>o'rmonchilik va yog‘och tayyorlash sohasidagi xizmatlar</i> (6).</li> </ul>	<b>15</b>
<b>3</b>	<b>Baliqchilik sohasidagi xizmatlar</b>	<b>13</b>
<b>4</b>	<b>Tog‘-kon sanoati sohasidagi xizmatlar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➢ <i>toshko‘mir qazish sohasidagi xizmatlar</i> (1);</li> <li>➢ <i>neft va gaz qazib olish sohasidagi xizmatlar</i> (3);</li> <li>➢ <i>koks, neft va yadro yoqilg‘isiga doir xizmatlar</i> (3).</li> </ul>	<b>7</b>

<b>5</b>	<b>Oziq - ovqat mahsulotlariga ishlov berish xizmatlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ <i>go'sht mahsulotlariga ishlov berish xizmatlari (4);</i></li> <li>➤ <i>meva, sabzovotlarni qayta ishlash xizmatlari (3);</i></li> <li>➤ <i>hayvon va o'simlik yog'lariiga ishlov berish xizmatlari (3);</i></li> <li>➤ <i>sut mahsulotlariga ishlov berish xizmatlari (2);</i></li> <li>➤ <i>un va kraxmal mahsulotlariga ishlov berish xizmatlari (2);</i></li> <li>➤ <i>hayvonlar uchun ozuqa tayyorlash xizmatlari (2);</i></li> <li>➤ <i>turli oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash xizmatlari (17).</i></li> </ul>	<b>33</b>
<b>6</b>	<b>Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar</b>	<b>1</b>
<b>7</b>	<b>To'qimachilik mahsulotlariga ishlov berish xizmatlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ <i>to'qimachilik tolalari, ip, jun va brezent tayyorlash xizmatlari (49);</i></li> <li>➤ <i>turli to'qimachilik mahsulotlari tayyorlash xizmatlari (8).</i></li> </ul>	<b>57</b>
<b>8</b>	<b>Kiyim, mo'yna mahsulotlarini tayyorlash xizmatlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ <i>kiyim tayyorlash xizmatlari (5);</i></li> <li>➤ <i>mo'ynadan tayyorlangan mahsulotlar xizmatlari (1);</i></li> </ul>	<b>8</b>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>➢ <i>teri mahsulotlari, poyabzal tayyorlash xizmatlari (2).</i></li> </ul>	
9	<b>Yog‘ochdan mahsulotlar yasash xizmatlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➢ <i>yog‘ochdan buyumlar yasash xizmatlari (7);</i></li> <li>➢ <i>sellyuloza, qog‘oz buyumlarini yasash xizmatlari (7);</i></li> <li>➢ <i>nashr etiladigan, axborot kommunikatsiya mahsulotlari xizmatlari (25).</i></li> </ul>	39
0	<b>Kimyoviy mahsulotlar (sanoat gazlari, bo‘yoqlar, azotli o‘g‘itlar, yuvish vositalari kabilalar)ga doir xizmatlar</b>	20
1	<b>Rezina va plastmassa mahsulotlariga doir xizmatlar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➢ <i>rezina buyumlar, shinalarga doir xizmatlar (4);</i></li> <li>➢ <i>plastmassali buyumlarga doir xizmatlar (7).</i></li> </ul>	11
2	<b>Nometall mineral buyumlarga doir xizmatlar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➢ <i>shisha buyumlarga doir xizmatlar (8);</i></li> <li>➢ <i>sopol va loydan yasalgan buyumlarga doir xizmatlar (11);</i></li> <li>➢ <i>sement, ohak, gipsdan yasaladigan buyumlar xizmatlari (13).</i></li> </ul>	32
3	<b>Metall buyumlarga doir xizmatlar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➢ <i>temir, cho‘yan, po‘lat va ferroqotishmalarga doir xizmatlar (7);</i></li> <li>➢ <i>qimmatli metall buyumlarga doir xizmatlar</i></li> </ul>	18

	(5); ➤ <i>quymachilik bo'yicha xizmatlar</i> (6).	
4	<b>1 Metall mahsulotlari bo'yicha xizmatlar:</b> ➤ <i>metall konstruksiyalar bo'yicha xizmatlar</i> (3); ➤ <i>metall qurilish buyumlariga doir xizmatlar</i> (15); ➤ <i>metallarga qoplama qoplash</i> <i>bo'yicha xizmatlar</i> (11); ➤ <i>mashinasozlik texnologiyasiga doir xizmatlar</i> (2); ➤ <i>pichoq, qulf, yengil metalldan yasalgan</i> <i>buyumlarga doir xizmatlar</i> (12).	43
5	<b>1 Mashina va jihozlarga doir xizmatlar</b> ➤ <i>nasoslar va kompressorlarga doir xizmatlar</i> (6); ➤ <i>klapan, podshipnik kabilarga doir xizmatlar</i> (5); ➤ <i>pechlar, sovutish jihozlariga doir xizmatlar</i> (12); ➤ <i>qishloq va o'rmon</i> <i>xo'jaligidagi mashina va</i> <i>traktorlarga doir xizmatlar</i> (5); ➤ <i>dastgohlar bilan ko'rsatiladigan xizmatlar</i> (7); ➤ <i>maxsus maqsadlarga mo'ljallangan</i> <i>jihozlarga doir xizmatlar</i> (6); ➤ <i>oziq-ovqat, ichimlik va tamaki</i> <i>mahsulotlariga ishlov berishga mo'ljallangan</i> <i>jihozlarga doir xizmatlar</i> (3); ➤ <i>to'qimachilik, qog'oz, qurol-yarog'</i>	59

	<i>mahsulotlariga ishlov berishga mo'ljallangan jihozlarga doir xizmatlar (12);</i> ➤ <i>maishiy elektr asboblariga doir xizmatlar (3).</i>	
6	<b>1 Elektr va optik jihozlarga doir xizmatlar</b>	<b>18</b>
7	<b>1 Radio, televideniye, aloqa jihozlariga doir xizmatlar</b>	<b>8</b>
8	<b>1 Tibbiy, optik qurilmalar, qo'l soatlariga doir xizmatlar</b>	<b>14</b>
9	<b>1 Transport jihozlariga doir xizmatlar:</b> ➤ <i>avtomobillar, pritsep va kuzovlar xizmatlari (6);</i> ➤ <i>kemalar va qayiq jihozlariga doir xizmatlar (5);</i> ➤ <i>temir yo'l lokomotivlari, tramvay vagonlarining jihozlariga doir xizmatlar (2);</i> ➤ <i>havo, kosmik uchish apparatlari xizmatlari (5);</i> ➤ <i>mototsikllar va velosipedlarga doir xizmatlar (6).</i>	<b>24</b>

0	2 Sanoat mahsulotlari (stullar, oshxona mebellari, to'shaklar, zargarlik buyumlari, musiqa, sport tovarlari, o'yinchoqlar, supurgi va cho'tkalar)ga doir xizmatlar	30
1	2 Elektr energiyasi, gaz, bug', suv ishlab chiqarish va taqsimlashga doir xizmatlar	15
2	2 Qurilish xizmatlari	275
3	2 Avtomobillar, mototsikllar, shaxsiy foydalaniladigan buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	77
4	2 Ulgurji hamda vositachilik savdosi bo'yicha xizmatlar	274
5	2 Chakana savdo bo'yicha xizmatlar	91
6	2 Mehmonxona va restoranlar xizmatlari	17
7	2 Transport, omborxona xo'jaligi va aloqa xizmatlari: ➤ quruqlikda transport xizmatlari va quvurlar orqali mahsulot yetkazib berish (37); ➤ suv transporti xizmatlari (22); ➤ havo transporti xizmatlari (8); ➤ turistik agentliklar va turoperatorlar xizmatlari (60); ➤ pochta va elektr aloqa xizmatlari (49).	176
8	2 Moliyaviy vositachilik bo'yicha xizmatlar: ➤ pul vositachiligi bo'yicha xizmatlar (30); ➤ sug 'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlar (20); ➤ moliyaviy vositachilikkanisbatan	69

	<i>yordamchi xizmatlar (19).</i>	
2 9	<b>Ko'chmas multk, ijara va tijorat faoliyati bilan bog'liq xizmatlar</b>	<b>17</b>
0	Mashina va uskulalarni operatorsiz ijaraga berish hamda shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ijaraga berish bo'yicha xizmatlar	<b>19</b>
1	<b>Kompyuter xizmatlari</b>	<b>19</b>
2	<b>Tadqiqotlar va ishlanmalar bo'yicha xizmatlar</b>	<b>11</b>
3	<b>Iste'molchilarga taqdim etiladigan ba'zi xizmatlar:</b>  ➤ <i>yuridik xizmatlar (18);</i> ➤ <i>buxgalterlik xizmatlari (8);</i> ➤ <i>marketing xizmatlari (5);</i> ➤ <i>tijorat faoliyati bo'yicha xizmatlar (60);</i> ➤ <i>texnik sinovlar, reklama xizmatlari (39);</i> ➤ <i>tozallash bo'yicha xizmatlar (17);</i> ➤ <i>fotografiya, telefon borasidagi xizmatlar (45).</i>	<b>192</b>
4	<b>Davlat boshqaruvi sohasidagi xizmatlar:</b>  ➤ <i>sog'lioni saqlash, ta'lim, madaniyat muassasalari boshqaruvidagi xizmatlar (26);</i> ➤ <i>tijorat faoliyati samaradorligini oshirishga doir xizmatlar (15);</i> ➤ <i>mudofaa, adliya va sud sohasidagi xizmatlar (15).</i>	<b>56</b>
5	<b>Ta'lim sohasidagi xizmatlar</b>	<b>18</b>

3	Sog'liqni saqlash, aholiga ijtimoiy xizmat	79
6	ko'rsatish sohasidagi xizmatlar	
3	Kommunal xizmatlar	9
7		
3	Kasaba uyushmalari, siyosiy tashkilotlar	9
8	xizmatlari	
3	Dam olish, madaniy va sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha xizmatlar:	84
9	<ul style="list-style-type: none"> <li>➢ <i>kinofilm, radioeshittirish xizmatlari (41);</i></li> <li>➢ <i>kutubxona, arxiv, muzey va boshqa madaniy muassasalar xizmatlari (24);</i></li> <li>➢ <i>sport, qimor o'yinlariga doir xizmatlar (19).</i></li> </ul>	
4	Kir yuvish, sartaroshxona, go'zallik salonlari, dafn marosimlari, jismoniy komfortni ta'minlashga doir xizmatlar	44
0		
4	Uy xo'jaliklari xizmatlari	3
1		
4	Eksterritorial tashkilotlar va idoralar xizmatlari	1
2		
<b>JAMI</b>		<b>2076</b>

Ushbu xizmatlar tarkibiga o'ziga xos xizmat turlari kiradi, ular esa keltirilgan subektlarning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning manfaatli faoliyatidan iboratdir. Shu tufayli, xizmatlarga turli insonlar nuqtai nazaridan har tomonlama qarash kerak, deb o'ylaymiz. Chunki xizmat ko'rsatishning maqsadi birinchidan, inson kamolotiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchidan, xizmatni amalga oshiradiganlar ham shu insonlardir. Shu nuqtai nazardan, xizmatlar inson va uning kamoloti bilan bog'liq iqtisodiy- ijtimoiy jarayonlar majmuidan iboratdir.

Bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, mazkur sohada samaradorlikni oshirish orqali uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida ushbu sohani rivojlantirmasdan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, ishsizlik darajasini kamaytirish, aholi daromadini oshirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilib bo'lmaydi. Buni mamlaktimiz Prezidentining so'nggi 2016-2024 yillar davomida mazkur soha rivojiga doir qabul qilgan qator farmon va qarorlari hamda iqtisodiyotimiz taraqqiyotiga bag'ishlangan har bir chiqishlarida soha istiqboliga alohida to'xtalishlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish unchalik oson ish emas, chunki ushbu soha asosan xususiy mulkka asoslangan bo'lib, aksariyat holda tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Ammo odamlarimiz ongida xususiy mulk, mulkdor degan tushunchalar kechagina, mustaqillikdan keyin paydo bo'ldi. Tabiiyki, mulkdor hali mustaqil rivojlanishni bilmagan bir paytda, ushbu sohaning samaradorligini oshirish masalasi qanchalik murakkab ekanligini tasavvur qilish qiyin emas. Buning ustiga davlat tuzilmalari tomonidan ularning ichki ishlariga aralashuvni yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi, chunki kecha iqtisodiyotni boshqarishning barcha dastaklari qo'lida bo'lgan davlat tuzilmalari ularni qo'ldan chiqarishni xohlamaydilar. Shunday sharoitda mulkdchlarni, xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ba'zi murakkabliklarni tug'diradi. Xizmat ko'rsatish sohasi qachon rivojlanadi? Qachonki, tadbirkorlarga to'liq erkinlik yaratilib, ushbu soha mahsulotiga talab yetarli bo'lsa, ularning sifati va narxi talabga javob beradigan bo'lsa.

Shu tufayli mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biri, hozirgi paytda iqtisodiyotni yuksak darajada rivojlantirish uchun xizmat ko'rsatish sohasini yanada erkinlashtirish va ular samaradorligini oshirish hamda erkin faoliyat ko'rsatish uchun tegishli imkoniyatlar yaratib berishdan iboratdir. Bu esa xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan xususiy tadbirkorlar faoliyatiga davlat tuzilmalarining aralashuvini yanada ko'proq cheklash, xo'jalik subektlariga ko'rildigan jazo chorralari tizimini qayta ko'rib chiqish, ularga zaruriy resurslarni sotib olish va mahsulotlarini sotish uchun ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy ko'mak, qo'shimcha soliq imtiyozlari berish kabi muhim chorallardan iboratdir.

Ko'rinish turibdiki, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishga doir talaygina masalalar mavjud bo'lib, ular shunchaki

muammo emas, balki hal qilinishi lozim bo'lgan muammolardir, chunki mamlakatimizning kelgusidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bevosita shu sohaning rivojlanishiga chambarchas bog'liqdir.

Muxtasar qilib aytganda, xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish bo'yicha mamlakatimizda yechimini kutayotgan ko'plab masalalar mavjudligini ko'rmoqdamiz, shu tufayli mazkur sohada samaradorlikni oshirishga har tomonlama e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Analiz ekonomiki. Strana, rinok, firma. Pod red. Prof. V.YE.Ribalkina. Uchebnik. - M.:Mejdunarodniye otnosheniya, 2019. - 304 s.
2. Abdukarimov va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Fan va texnoloqiya, 2017. - 288 bet.
3. Akbarova Z. Tovar va xizmatlar bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2024. - 144 bet.
4. Abulqosimov H. va boshqalar. Erkin iqtisodiyot tamoyillari. - T.: Akademiya, 2024. - 52 bet.
5. Abdullayev YO.A. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. - T.: Mehnat, 2017.
6. Abdullayev YO.A. Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. - T.: Mehnat, 2018.
7. Amaliy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. - T.: Sharq, 2023.
8. Budko I.I. Transportnoye obslujivaniye turizma: uchebnoye posobiye. - M.: Izdatelskiy sentr «MarT», 2016. – 336 s.